



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## KOREYS TILINI O‘RGANISH USLUBLARI

**Jumayeva Mohira**

*Oriental universiteti o‘qituvchisi*

**Qudratova Ra’no**

*Oriental universiteti Koreys filologiyasi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada koreys tilini o‘rganishda samarali hisoblangan uslublar, xususan, koreys tilini o‘rganishning bugungi kundagi eng zamonaviy usullari atroflicha tahlil etilib, mazkur uslublarning tilni aynan qaysi jihatlarini o‘rganishda samaraliroq ekanligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Chet tili, madaniyat, til o‘rganish, uslub, K-pop, yangiliklar, Koreys shouulari, yozish amaliyoti.

Koreys tili dunyo miqyosida qiyinligi bo‘yicha 6-o‘rinda turadi. Shunga qaramay, koreys tilini o‘rganuvchilar soni oshib bormoqda. So‘nggi yigirma yil ichida koreys tilini o‘qitishning zamonaviy usullari yaxshilandi. Hozirgi kunda koreys tilini o‘rganishda zamonaviy usul va metodlardan foydalanish maqsadga muofiqdir. Darhaqiqat, til o‘rganuvchilarga chet tillarini o‘rgatish strategiyalarining juda xilma-xilligi mavjud. Bugungi kunda koreys tilini o‘rganish jarayoni ko‘proq talabalar faolligi asosidagi darslarni qamrab oladi va bu vaqt talab etadi. Shunday ekan, chet tilini o‘rganishda zamonaviy usullardan foydalanishimiz kerak. Zamonaviy o‘rganish uslublari, asosan, fan va texnologiya haqida samarali tushunchani shakllantirish yoki rivojlantirishga yordam beradi.

Koreys alifbosi 24 ta harfdan iborat, ulardan 14 tasi undosh va 10 tasi unli harflar. Undan tashqari koreys diftonlari ham mavjud. Ular : ㅏ(ua), ㅓ(ui), ㅕ(ue), ㅓ(uo), ㅓ(ui), ㅕ(ue), ㅡ(i~).

Koreys tilini bilish darajasi 급 deb ataladi va u 3 ta katta guruhga bo‘linadi: 조급(chogip) 중급(chunggip) 고급(kogip). Koreys tilini bilish darajasi 1급 dan 6 급 gacha baholanadi. 조급(chogip) 1급 va 2급 boshlang‘ich ballar bo‘lib, 1000 tagacha va undan ko‘p so‘z boyligiga egalikni anglatadi. Asosan, oson va esda qolarli so‘zlarni o‘z ichiga oladi. 중급(chungip) 3급 va 4 급 o‘rtalik ballar bo‘lib, 2000-3000 ta va undan ko‘p so‘zlarni o‘z ichiga oladi. So‘zlar murakkablashadi va ingliz tili bilan uyg‘unlashgan so‘zlar paydo bo‘la boshlaydi. 고급(kogip) 5 급 va 6 급 eng yuqori ko‘rsatkichlar bo‘lib, 4000 ta va udan ortiq meditsina, qurilish hamda hujjatlarga oid so‘zlarni qamrab oladi.

Quyida esa koreys tilini o‘rganishning bir nechta samarali uslublarini ko‘rib chiqamiz:





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### 1. K-pop va dorama.

Koreys tilini 80% odam k-pop yoki doramalar orqali o‘rganadi. K-pop - bu Janubiy Koreya madaniyatining bir qismi sifatida paydo bo‘lgan musiqa shakli. BTS, Blackpink, Seventeen, Stray Kids, Ateez kabi bir qancha K-pop guruhlari bugungi kunda sevib tinglanadi.

Dorama - bu koreys seriali. Koreya doramalari juda mashhur. Misol tariqasida “Qish sonatasi”, “Samoviy ishq”, “Quyosh avlodlari”, “Vorislar” va hklarni keltirish mumkin.

Koreys tilini zamonaviy uslublar orqali o‘rganishda shu ikki yo‘nalish ayni muddao. Chunki koreys qo‘shiqlarini tinglash va doramalarni ko‘rish orqali talaffuz sifatini ancha oshirish mumkin. Undan tashqari yangi so‘zlar, Koreya madaniyati va noodatiy urf-odatlarini ham o‘rganish uchun yaxshi uslub hisoblanadi.

### 2. Koreya yangiliklari koreys tilida.

Koreya yangiliklari - bu koreys tilini o‘rganish uchun eng qulay va foydali ma’lumotlar to‘plamidir. Yangiliklar ko‘rayotgan paytda kerakli bo‘lgan yangi so‘zlar ko‘p uchraydi. Jurnalistlar dona-dona va aniq, shuningdek, juda tez gapirishadi va aynan shu orqali tez anglash hamda tez gapirish qobiliyatları rivojlanadi. Yangiliklarda notanish so‘zlar ko‘p uchraydi. Ularni yozib, tahlil qilib, tarjima qilib, lug‘at bazasiga qo‘shib qo‘yish lozim. Bu tarzda til o‘rganish biroz qiyin va ko‘pchilikni sabri chidamaydi. Ammo kichik qadamlar katta yutuqlarga yetaklashini unutmaslik kerak.

### 3. Video va podcastlar.

Youtube va boshqa ilovalardagi koreys tilida tayyorlangan darslar, o‘quv qo‘llanmalari asosida hozirlangan videolarni kuzatib borish kerak. Xususan, “Topik Korean”, “Learn Korean with koreanglass”, “Learn Korean with Jadoo”, “Korean language”, “Talk to me in Korean”, “Hanijemi teacher”, “Quick Korean” kabi sahifalar koreys tilini o‘rganish uchun yaxshi yordamchi bo‘la oladi. Ularda topik testlarini, jumladan, 51 번(bon), 52 번(bon), 53 번(bon), 54 번(bon) 듣기(titgi), 씨기(sigi) savollarini har birini aniq tushuntirib, tahlil qilib beradi. Testlarni bittadan tahlil qilib, to‘g‘ri javoblarni ko‘rsatib berilgan. Juda ham foydali videolar to‘plami hisoblanadi. Qolaversa, “Learn Korean with koreanclass” - koreys tilini o‘rganishni boshlaganlar uchun ayni muddao bo‘lib, koreys tilida muloqot qilishni, gaplarni bir-biriga bog‘lash va grammatikani oson so‘zlar yordamida o‘rgatadi. Learn Korean with Jadoo - mitti qizaloq bilan turli sarguzashtlar bo‘lib, multfilmlar talqinida ishlangan videolar tilni qiziqib o‘rganishga yordamlashadi.

“Edm Korean language” - so‘zlar, podcastlar va biznesga asoslangan gaplarni o‘rgatadi. “Talk to me in Korean” - juda mashxur videolar to‘plami bo‘lib, nafaqat Youtubeda, balki, Instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda ham o‘zini ajoyib, oson, hammaga mos keladigan videolari bilan ajralib turadigan sahifa.

“Hanijemi teacher” - o‘zini bilim berishi bilan mashhur bo‘lgan sahifa hisoblanib, har bir mavzuni aniq faktlar bilan batafsil tushuntirgani uchun darsga sho‘ng‘ib ketishingiz aniq.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“Quick Korean” - Youtubeda koreys tilini onlayn tarzda o‘rganish uchun ajoyib teledastur. Koreys ustozlar grammatikalarni aynan koreys tilida oson so‘zlar yordamida aniq tarzda tushuntirishadi. o‘rgatadi. Shuningdek, ushbu sahifada qiziqarli testlar va dialoglar orqali ham bilim olish mumkin.

### 4. Koreys shouulari.

Tv shouular ham asosan talaffuzingizni oshirishda yordam beradi. Misol tariqasida 달려라 방탄(tallyeora bangtan), Show! Terview!, 금쪽 같은 내새기(gimchxok kxatxin nesegi), Runningman, Knowing boss, In the soup BTS version, Jessi’s show kabilarni keltirish mumkin. Bu shouular faqatgina talaffuzni emas, koreys tiliga bo‘lgan qiziqishni ham oshiradi. Koreya hayoti, idollar hayoti va turli koreys o‘yinlarini ko‘rib vaqtingiz qanday tez o‘tganini bilmay qolasiz.

### 5. Kakao-talk, chat duolingo.

Kakao-talk - Koreyada eng mashhur ilova. Nafaqatlar yoshlar, balki kattalar ham foydalanishi uchun barcha qulayliklarga ega. Koreys tilini o‘rganayotgan do‘sstar orttirishingiz hamda keng muloqot orqali koreys tilini, balki boshqa tillarni ham o‘rganish mumkin. Duolingo-onlayn platformasi ham koreys tilini endi o‘rganayotganlar uchun ayni muddao. Bundan tashqari, Memrise yoki Rosseta Stone kabi resurslardan ham foydalansa bo‘ladi. Yuqorida sanab o‘tilgan chatlar orqali zamonaviy yoshlar orasida urf bo‘layotgan ishoraviy til birliklari (slanglar)dan ham xabardor bo‘lish mumkin: ( ○ ○ -ha, π π -yig‘lash, ↘ ↘ -yo‘q, ⚡ ⚡ - kechirim so‘rash, ☺ ☺ -haha, ☺ ☺ -kulish(lol).

### 6. Flashkarta hamda koreys tilida xat yozish.

Lug‘at boyligini oshirish uchun flashkartalar juda foydali. Yozib, eshitib, testlar ishlab o‘rganish uchun noodatiy ilova.

Koreys tilida xat yozish amaliyoti ham xatosiz va ravon yozish qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, o‘rgangan narsalarni muntazam ravishda takrorlash va sinovdan o‘tkazish orqali bilimlarni yanada mustahkamlash mumkin. Misol uchun, shaxsiy o‘quv reja tuzib, har hafta o‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazish uchun savol yoki testlar tayyorlab borish lozim.

### 7. Koreys tilini o‘rgatuvchi o‘quv markazlari.

Koreys tilini o‘rgatuvchi o‘quv markazlariga qatnab, guruh tarzida til o‘rganish ham o‘quvchi uchun katta amaliy tajriba bo‘ladi. Yon-atrofdagi bilimga chanqoq guruhdoshlar bilan raqobat qilish tarzida til o‘rganish ancha samarali bo‘lishi aniq. Bu, tabiiyki, o‘rganuvchining muloqot qobiliyatlarini oshiradi va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ushbu uslublar koreys tilini oson o‘rganish hamda o‘zlashtirgan ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi. Eng muhimmi, turli yondashuvlarni sinab ko‘rish va qaysi biri sizga eng mos kelishini aniqlashingiz lozim.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Елухина Н.В. Средства обучения иностранному языку. М.: [Б.и.], 1982. 80 с.
2. Щукин А.Н. Современные интенсивные методы и технологии обучения иностранным языкам: Учебное пособие. М.: Филоматис, 2008. 188 с
3. Bim I.L. Chet tillarini o‘qitish metodikasi masalasi to‘g‘risida. // IYaSh 1974, - N2 – S, 19 – 32.
4. Dufo Bernard. Tillarni o‘qitish amaliyotida talabalarning o‘zaro aloqasi va tasavvur kuchi // Chet tillarida kommunikativ o‘qitish: universitetlararo. Shanba ilmiy. PSTU materiallari – Perm, 1998 y.
5. R.P Milrud, I. R. Maksimova Chet tillarni kommunikativ o‘qitishning zamonaviy kontseptual amoyillari. // IYaS., - 2000 – N4 – S,9 – 15, N5 – S, 17 - 22.

